UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARI BOZORINING XUSUSIYATLRI VA FUNKSIYALARI

Raximova Dilorom Sulaymonovna
BuxDU tayanch dokoranti,
diloromraximova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada umumiy ovqatlanish sohasining bir tomondan, insonning ovqatlanish ehtiyojlarini qondirish va boshqa tomondan, iqtisodiy faoliyat turi sifatida milliy va jahon mahsulotini yaratishga hissa qo‘shilayotgani, bandlikning oshishiga yordam beradigani hamda iqtisodiyotning boshqa sohalarining rivojlanishiga turtki bo‘ladigan jabhalarini inobatga olgan holda **«umumiy ovqatlanish xizmatlari»** tushunchasi tavsiflanlgan, bunday xizmatlari bozorining ob'ektlari va sub'ektlari aniqlangan. Shuningdek, maqolada aholiga iste’mol xizmatlari ko‘rsatish bozorida umumiy ovqatlanishning funksiyalari va xususiyat turlari ko‘rib chiqilgan bo’lib, barcha xizmatlarga xos umumiy xususiyatlar bilan birga, o‘ziga xos jihatlar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: umumiy ovqatlanish, uydan tashqarida ovqatlanish, umumiy ovqatlanish industriyasi, bozor ob'ektlari va sub'ektlari, umumiy ovqatlanish xizmatlari, funksiyalari.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие «услуги общественного питания», учитывая его двойственную роль: с одной стороны, в удовлетворении потребностей человека в питании, а с другой – во внесении вклада в создание национального и мирового продукта как вида экономической деятельности. Подчеркивается влияние данной отрасли на рост занятости и стимулирование развития других сфер экономики. В статье также определены объекты и субъекты рынка услуг общественного питания. Кроме того, рассматриваются функции и особенности общественного питания в системе предоставления потребительских услуг, выделены как общие свойства всех услуг, так и специфические отличительные черты.

Ключевые слова: общественное питание, питание вне дома, индустрия общепита, объекты и субъекты рынка, услуги общественного питания, функции.

Annotation. This article describes the concept of "catering services," considering both its role in meeting human nutritional needs and its contribution to national and global product creation as a type of economic activity. It highlights the sector’s impact on employment growth and its role in stimulating the development of other industries. The article also identifies the objects and subjects of the catering services market. Additionally, it examines the functions and characteristics of public

ISSN 3030-3907

catering in the consumer services market, outlining both general features common to all services and specific distinguishing aspects.

Keywords: public catering, out-of-home dining, food service industry, objects and subjects of market, catering services, functions.

KIRISH

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda xizmatlar sohasi, xususan, umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasining rivojiga alohida e’tibor kuchaymoqda. Bunga sabab, aholining sog’lom ovqatlanish tizimiga o’tish, yurtimizda turizm salohiyatini oshirishga ko’maklashish, zamonaviy qishloq va shahar infratuzilmasini shakllantirish, bandlik darajasini oshirish kabi umumiy holda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishdagi mazkur tarmoqning katta ahamiyatga egaligidir.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi farmoni bilan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[1]gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat jamiyatning barcha jabhalarida tizimli islohotlar amalga oshirish uchun «yo‘l xaritasi»ga aylandi. Mazkur taraqqiyot strategiyasida xizmatlar sohasini rivojlantirishga ham alohida urg‘u berilgan, jumladan, 34-maqsad tarkibida shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo‘lgan maishiy, keytering kabi xizmatlarni ko‘rsatish punktlarini, yo‘lbo‘yi xizmatlarini rivojlantirish ham ifodalangan. Shuningdek, aholi turmush tarzini yaxshilashning maxsus dasturlarini joriy qilishni, Respublika xududlarining turizim salohiyatini oshirishda umumiy ovqatlanish xizmatini rivojlantirish mexanizmlarining takomillashtirilishiga, sohada xizmat ko‘rsatish subyektlarining faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga, ularga qo‘shimcha imtiyozlar berishga bog‘liq holda amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

ISSN 3030-3907

Amerikalik psixolog Avraam Maslouning inson ehtiyorlari ierarxik modeliga muvofiq insonning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji asosiy, eng dolzarb kundalik ehtiyojlardan biridir[2]. Dunyo yaratilishidan to hozirgi kungacha u turli yo'llar bilan qondirilib, inson organizmini hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan kalloriyaga energiya manbasiga ega bo'lgan oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va minerallar to'plami bilan ta'minlaydi. Oziq-ovqat bilan ta'minlashning evolyutsiyasiga inson yashash joyi, birinchi navbatda iqlim, madaniy, tarixiy, milliy va diniy an'analar, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va tashish sohasida yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rib chiqilayotgan masalaning dolzarbligi umumiy ovqatlanish tizimining ijtimoiy soha holatiga, shu jumladan sog'liqni saqlash, demografiya va madaniyat holatiga ta'siri bilan belgilanadi. Umumiy ovqatlanish milliy iqtisodiyotning eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u oziq-ovqat mahsulotlarini keyinchalik aholiga yatkazish uchun pazandalik mahsulotlari shaklida sotishga qaratilgan. Biroq, har qanday holatda ham umumiy ovqatlanish korxonalari tayyorlaydigan taomlar inson salomatligiga foyda keltiradigan mahsulotlardan tayyorlanishi va ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam berishi lozim[3].

Ko'chada ovqatlanish bilan bir qatorda, umumiy ovqatlanish boshqa iqtisodiy faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyatining bir turi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, umumiy ovqatlanish sohasi milliy va jahon mahsulotini yaratishda muhim iqtisodiy faollikni shakllantirib, katta hissa qo'shadi. Umumiy ovqatlanish korxonalari butun dunyo bo'ylab millionlab insonlar uchun ish o'rinlarini ta'minlaydi. Ularning faoliyati qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, transport, turizm va mehmonxona biznesi kabi bog'liq sohalarning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, umumiy ovqatlanish boshqa xo'jalik faoliyati turlaridagi ishchilarga mehnat sharoitlarini yaratib beradi, shuningdek, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj aholining ovqatlanishini ta'minlaydi (tarbiya va ta'lim muassasalaridagi voyaga yetmagan bolalar, kam ta'minlangan fuqarolar, harbiy xizmatdagilar, tibbiyot muassasalaridagi bemorlar va boshqalar).

Shu bilan birga, ushbu tarmoq muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlarda rivojlanib, ichki va tashqi omillarning ta'siriga uchraydi. Bu omillar sohaning ko'lami, dinamikasi va samaradorligini belgilab beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi umumiy ovqatlanish bozorining zamonaviy holatiga xos xususiyatlari, funksityalarini aniqlash, ularni belgilovchi omillar hamda kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

ISSN 3030-3907

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Umumiy ovqatlanish" tushunchasi turli olimlarning tadqiqot predmetini tashkil qiladi. L.A.Radchenko o'z asarlarida umumiy ovqatlanish – bu xalq xo'jaligining bir tarmog'i bo'lib, uning asosini ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish shakllarining birligi bilan ajralib turadigan va turlari hamda ixtisosliklari bo'yicha farq qiladigan korxonalari tashkil etadi[4], - deya ta'riflaydi.V.A.Sidyakova "umumiy ovqatlanish – yakka tartibda yoki jamoa bo'lib, ovqatlanish korxonasida ovqatlanish"[5], - degan ta;rifini bergan.

Umumiy ovqatlanish xizmati - bu umumiy ovqatlanish korxonalari (yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar) tomonidan iste'molchining sotilgan mahsulot bilan bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan umumiy ovqatlanish mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, umumiy ovqatlanish mahsulotlari va sotib olingan tovarlarni sotish va iste'mol qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, dam olish va boshqa qo'shimcha xizmatlar majmui[6], deb tavsiflaydilar E.Yaxyayev va B.Iskandarov.

K.P.Kondratyev o'z asarlarida umumiy ovqatlanish xizmati – u pazandalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni korxona turi va sinfiga mos ravishda sotish va iste'mol qilish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha xizmat ko'rsatish[7] deb fikr bildirib o'tgan.

Q.J.Mirzayev va Z.I.Ravshanovlarni fikrlaricha, ovqatlanish xizmatlari - bu aholining ovqatlanishga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojidan kelib chiqadigan mijozlarga ko'rsatiladigan ovqatlanishni tashkil etish uchun xizmatlar sifati darajasi va o'ziga xos belgilarni mujassamlashtirgan holda ularning qoniqishini ifodalovchi servis faoliyat turi hisoblanadi[8].

Qayd qilish joizki, "Umumiy ovqatlanish" tushunchasi bilan birga olimlar tomonidan "Umumiy ovqatlanish xizmatlari" iborasini ham turlicha tavsiflanganlar. M.B. Kalanova Umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatish deganda, istemolchilarning umumiy ovqatlanish shaxobchalarida (subyektlarida) xizmat ko'rsatish jarayonini amalga oshirish tizimi tushuniladi[9].

G.I.Sadikovaning fikriga ko'ra "Umimiy ovqatlanish xizmati – bu korxona o'z mahsuloti ishlab chiqarish va sotish, sotib olingan tovarlarni realizatsiya qilish hamda foyda olish maqsadida aholi ehtiyojlarini qondirish kabi maqsadli jarayondir"[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiy fikrlash, kuzatish, taqqoslash kabi usullaridan foydalanildi.

ISSN 3030-3907

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy ovqatlanish eng qadimgi xo‘jalik faoliyatining shakllaridan biri bo‘lib, u o’sha zamonlardan boshlangan va hozirgi kunda ham rivojlanishini davom etmoqda. Umumiy ovqatlanish korxonalarining jamiyat hayotidagi ahamiyati va roli beqiyosdir.

Umumiy ovqatlanishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, u mehnatni tejash va soddalashtirish bilan birga oziq-ovqat mahsulotlaridan oqilona foydalanishni ifodalaydi. Ushbu soha umum-ovqatlanish korxonalari mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash va iste’mol qilishni hamohanglikda bo’lishiga imkon beradi. Umumiy ovqatlanish korxonalari aholining milliy daromadini shakllantirishda ishtirok etadi. Ularda ishlab chiqarish jarayoni mukammallashadi va yangi moddiy ne’matlar yaratiladi[11].


Umumiy ovqatlanish korxonalari ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligini oshirishga va ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish xodimlarining mehnat qobiliyatini doimiy ravishda yangilab turish va ularning ishchi kuchini takror ishlab chiqarish zarur. Bunday har kunlik takrorlanish inson tanasida asosiy rol o'ynaydigan oziq-ovqat iste'moli va dam olishi natijasida amalga oshiriladi. Oziq-ovqatlarni iste'mol qilish orqali inson o'zining mehnat qobiliyatini tiklaydi. Oziqlanish nafaqat odamlarning shaxsiy ehtiyojlarini qoniqishi, ularning jismoniy rivojlanishi va axloqiy holatiga bog'liq bo’lib qolmasdan, balki inson faoliyatining barcha tomonlarini ko'p jihatdan belgilaydigan muhim omildir[11].

Oziqlanish jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi - insonning takror ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, ovqatlanish insonning energiya xarajatlarini tiklash uchun ob'ektiv fiziologik ehtiyojidir. Umumiy ovqatlanish jamiyatning mehnat va moddiy resurslarini tejashga, odamlarning bo'sh vaqtini ko'paytirishga va iste'mol xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi[12].

Umumiy ovqatlanish korxonalari (restoranlar, oshxonalar, kafe, choyxonalar va fast food tarmoqlari) iste’molchilarga biologik va fiziologik talablariga mos ravishda tayyorlangan taomlar taklif qiladi. Turli yoshdagi va kasbiy guruhlarga mo‘ljallangan maxsus taomnoma ishlab chiqish, kaloriyali va muvozanatli ovqatlanishni ta’minlash orqali aholining umumiy sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Umumiy ovqatlantirish sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lib, uning rivojlanishi nafaqat aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlash, balki ish o‘rinlarini yaratish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va

ISSN 3030-3907

milliy iqtisodiyotni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Ushbu sohaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri 1.1-rasmda ko'rsatilgan.



1.1-rasm. Umumiy ovqatlantirish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati[1]

Mamlakatning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy farovonligi umumiy ovqatlantirish xizmatlarining rivojlanishiga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu sohaning uzluksiz rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Bu soha ish o'rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, soliq tushumlarini oshirish, turizmni rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u aholining sog'lom va balansli ovqatlanishini ta'minlash, sog'lom ovqatlanish madaniyatiga, ijtimoiy muloqotni rivojlantirish hamda turmush sifatini yaxshilashga katta ta'sir ko'rsatadi.

Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorining maqsadlari o'z mohiyatiga ko'ra tovar bozorlarining maqsadlariga o'xshash, biroq xizmatlarning bozor mahsuloti sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bir nechta farqlarga ega.

Mashhur iqtisodchi M. Fridmanning fikriga ko'ra[13], har qanday bozorning asosiy maqsadlari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

- Iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish;
- Xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqaruvchilarning daromad olishini ta'minlash;
- Jamiyat uchun ijtimoiy manfaatlarni yaratish.

Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorining iqtisodiy maqsadi – jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun iste'mol resurslaridan samarali foydalanishni

[1] Muallif tomonidan tuzilgan.

ISSN 3030-3907

ta’minlashdan iborat. Ushbu maqsad jamiyatning xizmatlarga bo‘lgan talabini o‘rganish va ularning xilma-xilligini bozorda taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Shundan kelib chiqib, umumiy ovqatlanish xizmatlarini ishlab chiqarish bozor konyunkturasining o‘zgarishiga, shuningdek, aholi ehtiyojlariga bog‘liq, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozori ob'ektlar va sub'ektlarni o'z ichiga oladi.M.Seroshtan ta'rifiga ko'ra, maishiy xizmat ko'rsatish bozori tarkibida umumiy ovqatlanish xizmati ob'ektlari alohida o'rin tutadi[14]. Jamiyat ob'ektlarining ijtimoiy-iqtisodiy roli ishlab chiqarish sohasi va xizmat ko'rsatish sohasi xususiyatlarining kombinatsiyasi: oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish va maishiy xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish. Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozori sub'ektlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish va sotiladigan mahsulotlar assortimenti bo'yicha birlashtirilgan, ishlab chiqarish texnologik jarayonlari, moddiy-texnik bazasi va mijozlarga xizmat ko'rsatish shakllari bo'yicha o'xshash umumiy ovqatlanish korxonalari majmui;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi va foyda olish maqsadida mahsulot sotib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxslar, tovar ishlab chiqaruvchilar;
- turli xil daromadlari va ijtimoiy-demografik xususiyatlariga ega bo'lgan alohida aholi guruhlari, shuningdek, umumiy ovqatlanish mahsulotlarining alohida iste'molchilari;
- jamoaviy iste'molchilar (maktab o'quvchilari, korxona ishchilari, talabalar, shaharlararo transport yo'lovchilari, turli bo'limlar xodimlari, dam olish uylarida, sanatoriylarda, tibbiyot muassasalarida dam oluvchilar va boshqalar) [15].

Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozori sub’ektlari turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xizmat ko‘rsatishi, ko‘pfunksiyaliligi va turli mijozlarning iste’mol taomillarini ham hisobga olgan holda faoliyatni tashkil qilishi faoliyat samaradorligini ham aynan yakuniy natija (foyda, daromad)dan tashqari mijozlarning xohish-istaklari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning kutishlaridan kelib chiqqan holda baholashi maqsadga muvofiq[16].

Ovqatlanish xizmatlarining sifati va iste’molchilar talablariga mos kelishi davlat daromadlariga ta’sir qiladi, chunki umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari savdosidan turli darajadagi budjetlarga tushumlar kelib tushadi. Umimiy ovqatlanish xizmatlari bozori boshqa xizmatlar bozoridan farqlanib, bir qator o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Ular, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:


- Mahsulotni ishlab chiqarish, uni sotish va iste’molini tashkil etish yo‘lga qo‘yilganligi;

ISSN 3030-3907

- Mahsulot ishlab chiqarishning to‘liq texnologik sikli amalga oshirilganligi;
- Ommaviy ovqatlanish xizmatlari sohasida yuqori darajadagi raqobat mavjudligi;
- Ommaviy ovqatlanish korxonalari tarmog‘ida turli xo‘jalik subyektlari keng qamrovda namoyon bo‘lganligi;
- Xizmatlar har bir alohida iste’molchiga moslashtirilgan holda tashkil etilganligi.

Iqtisodchi olim I.A.Lisitskiy o’z tadqiqotlarida shuni ko‘rsatadiki, “ommaviy ovqatlanish sohasining o‘ziga xos jihati shundaki, u bir vaqtning o‘zida ikki tarmoq – oziq-ovqat sanoati va savdo sohalarining ishtirokchisidir, ya’ni, ishlab chiqarish sohasi va aylanma-iste’mol sohasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi”[17].

Shuni ta’kidlash lozimki, umumiy ovqatlanish xizmatlarining bozordagi o‘ziga xosligi ular bajaradigan funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi (1.2-rasm).



1.2 -rasm. Umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorining funksiyalari[2]

1.2-rasmdan ko‘rinib turibtiki, hozirgi kunda umumiy ovqatlanish xizmatlari bozori o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa uchta o‘zaro bog‘liq funksiyani bajarish bilan bog‘liq: oshpazlik mahsulotlarini ishlab chiqarish, oshpazlik mahsulotlari va sotib olingan tovarlarni realizatsiya qilish va iste’molni tashkil etish.

Bizning fikrimizcha, umumiy ovqatlanish xizmati – bu iqtisodiy faoliyatning maxsus turi bo‘lib, xo‘jalik sub’ektlarining harakatlar majmuasi yoki ularning natijasi sifatida qaralishi lozim. Ushbu xizmatning asosiy maqsadi – aholining uydan tashqari

[2] Muallif tomonidan tuzilgan

ISSN 3030-3907

ovqatlanish sohasida iste'mol uchun qo'shimcha qiymat yaratish. Bu jarayon ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish, iste'molni tashkil etish va dam olishni tashkillashtirish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodchi olimlar Nikolayeva T. I. va Fadeyeva Z. O. ta'kidlashicha, ommaviy ovqatlanish xizmatlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ular umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega[18].

Umumiy ovqatlanish xizmatlarining umumiy xususiyatlari:

- Iste'moldan ajralmaslik – tovarlardan farqli ravishda, ovqatlanish xizmati bir vaqtning o'zida ham taqdim etiladi, ham iste'mol qilinadi.
- Aniq mijozga yo'naltirilganligi – xizmat shaxsiy tusga ega bo'lib, u muayyan iste'molchiga taqdim etiladi.
- Tarkibiy xususiyatlarning o'zgaruvchanligi – xizmat sifati doimiy bo'lishi mumkin, ammo xizmat ko'rsatish jarayonida u har xil omillarga (personal malakasi, shaxsiy fazilatlari, mutaxassislik darajasi va xizmat ko'rsatish sharoiti) bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin.
- Saqlanmasligi – tovarlardan farqli ravishda, ommaviy ovqatlanish xizmati saqlab qo'yib bo'lmaydi. Uning talab darajasi iste'molchilarning shaxsiy ehtiyojlari va mavjud iqtisodiy-sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgarib turadi[19].

Shuni ta'kidlash joizki, umumiy ovqatlanish sohasi xizmatlar ishlab chiqarish va ularning aylanishi tarkibiy qismi sifatida quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Ijtimoiy mahsulotning uzluksiz takror ishlab chiqarilishini ta'minlash (ishlab chiqarish, aylanish va iste'molning tashkil etilishida ishtirok etadi);
- Tovar va xizmatlarni iste'molchilar talabiga muvofiq sotilishini amalga oshirish (aholi talabini qondirishni ta'minlaydi);
- Umumiy ovqatlanish sohasining normal ishlashini ta'minlash, bu esa mamlakatdagi moliyaviy barqarorlik va pul aylanishining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, umumiy ovqatlanish sohasi faoliyati natijasida iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari va davlatning umumiy moliyaviy resurslarining muhim qismi shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorida rivojlanishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Iste'molchilarni ilmiy asosda tayyorlangan taomlar bilan ta'minlash;

ISSN 3030-3907

- O‘z mahsulotlarini ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotishni hisobga olgan holda faoliyatni rejalashtirish va taqsimlash;
- Korxonalarning joylashuvi va ixtisoslashuvining maqbul sxemalarini qo‘llash, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish;
- Bo‘sh vaqtni tashkil etish, shaxsiy dam olish, oilaviy marosimlar va ishbilarmonlik uchrashuvlarini o‘tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- Iste’mol xarajatlarini tejash va aholining bo‘sh vaqtini ko‘paytirish, bu esa umumiy ovqatlanish korxonalarining mahsulot xarid qilish, ovqat tayyorlash, dasturxon tuzash, yig‘ishtirish, idish-tovoq va xonalarni yuvish kabi funksiyalarni bajarishi natijasida amalga oshiriladi.

Umumiy ovqatlanish xizmatlari o‘zining ahamiyati, ko‘lami va iste’mol xizmatlari bozorida egallagan yetakchi o‘rni bilan ajralib turadi. Aynan ushbu xizmatlar aholining shaxsiy va individual ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha samarali mexanizmni shakllantiradi. Ular nafaqat ovqatlanishni tashkil etish, balki aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun ham muhim rol o‘ynaydi.

Umumiy ovqatlanish xizmatlari iste’mol xizmatlari bozorining tarixiy rivojlanib boruvchi va o‘zgaruvchan kategoriyasidir. Mamlakatimizning turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida ba’zi xizmatlar hayotimizning ajralmas qismiga aylansa, boshqalari endigina shakllana boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Maslouning_ehtiyojlar_piramidasi
3. Raximova D.S. Sog‘lom ovqatlanish umumiy ovqatlanish sohasini barqaror rivojlantirishning asosi sifatida // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali//2025-yil, yanvar. № 1-son. 178-b// https://yashil-iqtisod-va-taraqqiyot.uz
4. Радченко Л.А. Организация производства на предприятиях общественного питания. Учебник. Ростов. н/Д: Фенникс, 2006. – 352 с.
5. Сидякова В.А. Повышение качества услуг предприятий общественного питания. Диссертация. Россия. Г. Княгинино, 2015. – С – 37
6. Яхяев Э., Искандаров Б. Социально-экономическая сущность отрасли общественного питания // Мировая наука. 2021. №12 (57).С-205-215. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialno-ekonomicheskaya-suschnost-otrasli-obschestvennogo-pitaniya

ISSN 3030-3907

7. Кондратьев К.П. Организация обслуживания на предприятиях общественного питания. Учебное пособие. Улан-Уде. Издательство ВСГТУ 2007. 89 с
8. Мирзаев Қ.Д., Равшанов З.И. Умумий овқатланиш хизматларини ташкил этишнинг муҳим хусусиятлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №3, май-июнь, 2017 йил 158б.
9. Kalanova M.B.” Umumiy ovqatlanish korxonalarida ko’rsatiladigan xizmatlar sifati va unumdorligini oshirish” Dissertatasiya. Samarqand 2022-31b.
10. Г.И. Садыкова. Формирование и развитие рынка общественного питания в условиях трансформирующейся экономики (на примере Согдийской области Республики Таджикистан). Автореферат к.э.н. Душанбе.2016. – С.21.).
11. Яхяев Э., Искандаров Б. Социально-экономическая сущность отрасли общественного питания // Мировая наука. 2021. №12 (57).С-205-215. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialno-ekonomicheskaya-suschnost-otrasli-obschestvennogo-pitaniya
12. Азрилиян А. Н. Большой экономический словарь/ А. Н. Азрилиян // - М.: Институт новой экономики, 1997. 115с
13. Фридман А. М. Экономика предприятий торговли и питания потребительского общества. М.: Дашков и Ко, 2009. 626 с.
14. Сероштан М. В. Исследование конкурентоспособности потребительской кооперации России: монография/ М. В. Сероштан. - Белгород: кооперативное образование, 1999. - 309 с
15. Орлова А.И. Формирование и развитие рынка услуг общественного питания. Автореферат к.э.н. Россия. 2015г. 18 с
16. Siddikov A.A. Umumiy ovqatlanish sohasini rivojlantirish startegiyasini takomillashtirish. Avtoreferat. 2024y-15b.
17. Лисицкий И. А. Социально-экономическая эффективность и качество обслуживания населения в сфере услуг на примере предприятий общественного питания: автореф. дис. канд. экон. наук / Лисицкий И. А.: Всерос. гос. налоговая акад. Минфина России. М., 2008. 29 с
18. Николаева Т. И., Фадеева З.О. Формирование услуг предприятий общественного питания в условиях развития рыночной экономики// Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия «Экономика и менеджмент». 2007. Вып. 4. № 27 (99)

ISSN 3030-3907

19. Кутаева, Т. Н., Кутаева Е. А. Общественное питание в сфере потребительских услуг/ Т. Н. Кутаева, Е. А. Кутаева // Вестник НГИЭИ - 2013. - № 3 (22) - С. 114-125

ISSN 3030-3907